

Strategy For Forming International Cooperation Indicators For The Participation Of Uzbekistan's Higher Educational Institutions In International Rankings (Qs, The)

Begmatova Nodirakhon Numonovna

Head of the Department of International Cooperation,
Kokand State University

begmatova.nodira@gmail.com

Abstract

This article highlights the need to develop international cooperation indicators to enhance the participation of Uzbek higher education institutions (HEIs) in international rankings (in particular, QS World University Rankings and Times Higher Education). The study analyzed international cooperation indicators based on international rating methodologies, existing HEI practices, and best foreign practices. The analysis shows that the high ranking of HEIs in international rankings is directly related to their indicators such as international academic cooperation, scientific projects, and the share of foreign professors and students. The article proposes strategic approaches, digital monitoring systems, and sustainable financial mechanisms for HEIs to develop international cooperation.

Keywords: higher education, international ranking, QS, THE, international cooperation, indicator, strategy.

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining (OTM) xalqaro reytinglarda (xususan, QS World University Rankings va Times Higher Education) ishtirokini kuchaytirishda xalqaro hamkorlik ko'rsatkichlarini shakllantirish zarurati yoritilgan. Tadqiqot doirasida xalqaro reyting metodologiyalari, mavjud OTM amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribalar asosida xalqaro hamkorlik indikatorlari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, OTMlarning xalqaro reytinglarda yuqori o'rin egallashi bevosita ularning xalqaro akademik hamkorlik, ilmiy loyihalar, xorijiy professorlar va talabalar ulushi kabi ko'rsatkichlari bilan bog'liq. Maqolada OTMlar uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuvlar, raqamli monitoring tizimlari va barqaror moliyaviy mexanizmlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, xalqaro reyting, QS, THE, xalqaro hamkorlik, indikator, strategiya

Kirish

O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi faolligi so'nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu jarayon mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar, ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik qarorlar, shuningdek, xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuv borasidagi qat'iy siyosiy iroda bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, 2021-yildan boshlab davlat siyosatida oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi ishtiroki alohida ustuvorlik sifatida belgilandi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining tashqi aloqalarni rivojlantirishdan tashqari, xalqaro standartlarga mos transformatsiyasini ham talab etmoqda.

Xalqaro reytinglarda ishtirok etish – bu shunchaki statistik ko'rsatkichlar yig'indisi emas, balki universitetlar faoliyatining barcha jabhalarini, xususan ilmiy-tadqiqot, akademik hamkorlik, kadrlar salohiyati, innovatsion infratuzilma va boshqaruv tizimini chuqur tahlil qiladigan murakkab baholash jarayonidir. Bu baholashda xalqaro hamkorlik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. QS (Quacquarelli Symonds) va THE (Times Higher Education) kabi dunyodagi nufuzli reyting tizimlari aynan xalqaro ko'rsatkichlarni strategik ustuvor mezon sifatida belgilagan.

Jumladan, QS reytingi bo'yicha xorijiy talabalarning umumiy talaba soniga nisbati, xalqaro professor-o'qituvchilar ulushi, akademik obro' va xalqaro ilmiy maqolalarning iqtiboslanish darajasi muhim indikator hisoblanadi. THE reytingida esa "International Outlook" yo'nalishi doirasida xalqaro talabalar va xodimlar foizi, xalqaro hamkorlikda chop etilgan ilmiy maqolalar soni va xalqaro hamkorlik bo'yicha tuzilgan kelishuvlar chuqur tahlil qilinadi. Bu mezonlarning barchasi OTMLar qanchalik darajada xalqaro ilmiy va akademik muhitga integratsiyalashganini ko'rsatadi.

Shu bois, O'zbekiston OTMLari uchun xalqaro reytinglarda ishtirok etishning eng muhim omillaridan biri — xalqaro hamkorlikni izchil, tizimli va strategik asosda rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu maqola aynan xalqaro hamkorlik ko'rsatkichlarini shakllantirish strategiyalarini o'rganishga, ularni xalqaro reytinglar kontekstida baholash va takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun amaliy va nazariy jihatdan dolzarb masalalarni yoritishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Xalqaro reytinglarda ishtirok etish bo'yicha universitetlar o'rtasidagi raqobat global miqyosda kuchayib borar ekan, ilmiy adabiyotlarda bu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi institutsional strategiyalar va xalqaro hamkorlik ko'rsatkichlari tobora ko'proq e'tibor markaziga aylanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda xalqaro hamkorlik faqat tashriflar yoki qo'shma dasturlar doirasida emas, balki universitetning strategik taraqqiyoti, ilmiy salohiyati va global raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil sifatida qaralmoqda.

Masalan, Knight (2004)¹ xalqaro komponentlarni oliy ta'lim muassasasining ichki siyosati va rejalashtirish tizimi bilan chambarchas bog'lagan holda ko'rib chiqadi. Uning fikricha, xalqaro ko'rsatkichlar universitetning tashqi imijini emas, balki ichki resurslar boshqaruvi, akademik sifat va global sheriklik qobiliyatini namoyon etadi. Shu boisdan, universitetlar reytinglarda ishtirok etishni oddiy tashqi aloqalarga emas, balki ichki strategik boshqaruvga asoslangan jarayon sifatida yo'lga qo'yishlari kerak.

Marginson (2019)² esa xalqaro hamkorlikni "institutsional transformatsiya" omili sifatida baholaydi. U xalqaro reytinglar talab qiladigan indikatorlarning faqat statistik o'lchov emas, balki oliy ta'lim muassasasining madaniy ochiqligi, akademik muhit sifati va global bilim aylanishidagi o'rnini ko'rsatuvchi belgi ekanligini ta'kidlaydi. Bunday yondashuvdan kelib chiqib, ko'plab yetakchi davlatlar — Xitoy, Janubiy Koreya, Polsha, Malayziya — o'z universitetlarida reytinglarga mos xalqaro indikatorlar to'plamini ishlab chiqqan va bu mezonlarni ichki monitoring tizimlariga integratsiya qilgan. Masalan, Janubiy Koreya hukumati tomonidan universitetlarning xalqaro maqolalari soni, chet ellik talabalar ulushi va xalqaro grantlarda ishtiroki har chorakda baholanadi va tegishli moliyaviy rag'batlar bilan bog'lanadi.

Polsha va Malayziya tajribasida esa xalqaro hamkorlik bo'yicha maxsus ofislar tashkil qilinib, ular nafaqat aloqalarni rivojlantirish, balki reyting indikatorlari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Bu orqali xalqaro ko'rsatkichlar bo'yicha ichki axborot tizimlari shakllantirilgan.

O'zbekiston kontekstida esa xalqaro hamkorlik bo'yicha ko'plab tashabbuslar mavjud bo'lsa-da, hali yagona milliy indikatorlar to'plami ishlab chiqilmagan. QS yoki THE reytinglarida ishtirok etayotgan ba'zi universitetlar (masalan, O'ZMU yoki TATU) o'z ichki monitoring tizimlarini shakllantirishga harakat qilmoqda, biroq bu yondashuvlar aksariyat hollarda umumlashtirilgan shaklda qolmoqda. Bu esa xalqaro ko'rsatkichlarni aniq strategik maqsadlar va monitoring tizimiga asoslangan holda shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu sababli, xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, reyting mezonlariga mos xalqaro ko'rsatkichlarni belgilash va ularga erishishni boshqarish uchun OTMLarda raqamli axborot tizimlariga asoslangan, strategik rejalashtirilgan, samarali institutlararo mexanizmlar zarur.

¹ Knight, J. (2004). Internationalization remodeled: Definition, approaches, and rationales. *Journal of Studies in International Education*, 8(1), 5–31. <https://doi.org/10.1177/1028315303260832>

² Marginson, S. (2019). Limitations of human capital theory. *Studies in Higher Education*, 44(2), 287–301. <https://doi.org/10.1080/03075079.2017.1359823>

Ushbu maqolaning keyingi bo'limlari aynan ana shu mexanizmlarni shakllantirish yo'llarini tahlil qiladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida xalqaro hamkorlik indikatorlarini shakllantirishga oid real holatni tahlil qilish va strategik yondashuvlar ishlab chiqish uchun kompleks metodlar qo'llanildi. Tanlangan metodologik yondashuvlar mavzuning murakkab va ko'p qirrali xarakterini inobatga olgan holda tanlab olindi.

Avvalo, QS World University Rankings va Times Higher Education (THE) reyting tizimlarida xalqaro hamkorlik bilan bog'liq indikatorlar — xorijiy talabalar ulushi, xalqaro ilmiy maqolalar soni, chet ellik professor-o'qituvchilar miqdori, xalqaro grantlar va qo'shma loyihalar kabi mezonlar — kontent tahlili asosida o'rganildi. Bu tahlil ushbu indikatorlarning har bir reyting tizimidagi vazni va baholash mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi.

Keyingi bosqichda, O'zbekistonning 3 ta yirik OTMida — jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti, TATU, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarida — xalqaro aloqalar bo'yicha bo'lim rahbarlari bilan yarim strukturaviy intervyular o'tkazildi. Intervyular orqali xalqaro hamkorlikni boshqarishdagi amaliy tajriba, mavjud cheklovlar, indikatorlarni shakllantirishdagi muammolar va ichki tartibotlar haqida batafsil ma'lumotlar olindi. Suhbatlar davomida ishtirokchilarning fikrlari tematik kodlash asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotda, shuningdek, Qozog'iston, Vengriya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlardagi yetakchi universitetlarning xalqaro hamkorlik strategiyalari va reyting indikatorlariga oid hujjatlari o'rganildi. Bu orqali ushbu mamlakatlar tomonidan qo'llanilayotgan institutlashtirilgan yondashuvlar, axborot tizimlari, monitoring mexanizmlari va davlat qo'llab-quvvatlovi tahlil qilindi. Mazkur tajribalar O'zbekiston konteksti uchun amaliy jihatdan taqqoslanadigan model sifatida tanlandi.

Yakunda, O'zbekiston OTMlarida xalqaro reyting indikatorlarini shakllantirishdagi mavjud imkoniyatlar, zaif jihatlar, tashqi xavflar va ichki resurslar SWOT tahlil asosida baholandi. SWOT natijalari asosida strategik yondashuvlar ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan muhim asosiy faktorlar ajratib olindi.

Mazkur metodologiya yordamida tadqiqot mavzusi kompleks tarzda tahlil qilindi, indikatorlarni amaliyotga tatbiq etish yo'llari nazariy va empirik jihatdan asoslab berildi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot davomida o'tkazilgan kontent tahlil, intervyular va taqqoslama tahlillar asosida aniqlanishicha, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida xalqaro reytinglardagi ishtirokni ta'minlovchi xalqaro hamkorlik indikatorlari bo'yicha bir qator tizimli muammolar mavjud.

Quyidagi jadval ushbu muammolarni umumlashtirilgan tarzda aks ettiradi:

Muammo	Tavsif
<i>Strategik rejaning yo'qligi</i>	Xalqaro reyting mezonlariga mos indikatorlar asosida ishlab chiqilgan aniq strategik maqsadlar mavjud emas
<i>Ma'lumotlar monitoringi sustligi</i>	Xalqaro ko'rsatkichlar (xorijiy talabalar, professorlar, maqolalar) bo'yicha muntazam avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari shakllanmagan
<i>Kadrlar salohiyatining pastligi</i>	Reyting indikatorlarini yuritish va tahlil qilish malakasiga ega xodimlar yetishmaydi
<i>Moliyaviy vositalarning yetishmasligi</i>	Xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb etish, xalqaro grantlarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy mexanizmlar cheklangan

Shu bilan birga, ayrim OTMlar faoliyati ijobiy tajribalarni namoyon etmoqda. Masalan, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU)da xalqaro hamkorlik asosida Scopus bazasidagi maqolalar soni ortib bormoqda. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti esa xorijiy talaba ulushi bo'yicha milliy miqyosda yetakchilardan biri hisoblanadi. Bunday ilg'or tajribalar xalqaro

ko'rsatkichlarni tizimlashtirish va samarali boshqaruv vositalari mavjud bo'lsa, reyting ko'rsatkichlarini oshirish mumkinligini isbotlaydi.

Ushbu muhokama xalqaro reyting indikatorlarini faqat tashqi ko'rinish emas, balki OTM ichki strategiyasiga chuqur integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, indikatorlarni monitoring qilish, ularni raqamlashtirish va natijaviylikni baholash tizimini shakllantirish xalqaro tan olinuvchanlikni oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglarda (xususan, QS va THE) barqaror ishtiroki va yuqori o'rinlarni egallashi, eng avvalo, xalqaro hamkorlik faoliyatining sifatli tashkil etilishi hamda reyting mezonlariga mos indikatorlarning aniq shakllantirilgan bo'lishiga bog'liq. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar – strategik rejaning yo'qligi, ma'lumotlar monitoringining sustligi, malakali kadrlar tanqisligi va moliyaviy cheklovlar – bu jarayonni tizimli yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Xalqaro tajriba shuni anglatadiki, universitetlar o'z xalqaro hamkorlik faoliyatini faqat tashqi aloqalar doirasida emas, balki strategik boshqaruvning ajralmas qismi sifatida tashkil etgan taqdirdagina reytinglarda sezilarli natijalarga erisha oladi. Bunday yondashuv, nafaqat universitet nufuzini oshiradi, balki ilmiy-innovatsion salohiyat, akademik mobillik va xalqaro moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi strategik takliflar ishlab chiqildi:

✓ **Xalqaro indikatorlarni aniqlash va strategik integratsiya qilish.** Har bir OTM o'zining xalqaro rivojlanish strategiyasida reyting mezonlariga mos indikatorlarni (xorijiy talabalar soni, xorijiy professor-o'qituvchilar ulushi, xalqaro ilmiy maqolalar soni, qo'shma ilmiy loyihalar, xalqaro grantlar va dasturlar ishtiroki) aniq belgilashi, ularni yillik rejalashtirish va baholash tizimiga integratsiya qilishi zarur. Bu indikatorlar asosida reytinglarga yo'naltirilgan ichki tahliliy monitoring tizimi shakllanishi kerak.

✓ **Raqamli monitoring tizimlarini joriy etish.** Zamonaviy OTMlar uchun xalqaro faoliyat ko'rsatkichlarini kuzatish va hisobot berishning avtomatlashtirilgan, raqamli platformalari zarur. Bunday tizimlar — xalqaro shartnomalar, ilmiy hamkorlik loyihalari, akademik mobillik statistikasi, xorijiy talaba va o'qituvchilar soni kabi ma'lumotlarni real vaqtda monitoring qilishga xizmat qiladi. Mazkur platformalar orqali OTMlar xalqaro reyting agentliklariga aniq va sifatli ma'lumot taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

✓ **Grant asosida xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb qilish.** OTMlar xorijiy tajribaga ega mutaxassislarni jalb qilish uchun maxsus grant dasturlari, stipendiyalar va infratuzilma imkoniyatlarini taklif qilishi zarur. Bu orqali ta'lim sifati oshadi, ilmiy nashrlar soni va sifati ortadi, o'z navbatida bu omillar reyting ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birga, xorijiy o'qituvchilar uchun qulay ish shartlari va ijtimoiy kafolatlar ham ishlab chiqilishi kerak.

✓ **Akademik mobillik va qo'shma ilmiy loyihalarni kengaytirish.** Talaba va o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar, ixtisoslashtirilgan yozgi maktablar — bularning barchasi xalqaro hamkorlik ko'rsatkichlarini oshiradi. Har bir OTMda akademik mobillik va qo'shma tadqiqot loyihalarini rag'batlantiruvchi ichki normativ-huquqiy va moliyaviy mexanizmlar yaratilishi lozim. Shu bilan birga, akademik hamkorlikka yo'naltirilgan alohida grant dasturlarini yo'lga qo'yish taklif etiladi.

✓ **Kadrlar salohiyatini oshirish.** Xalqaro hamkorlik sohasida ishlovchi xodimlar uchun muntazam treninglar, xalqaro grantlar yozish bo'yicha seminarlar, akademik ingliz tili kurslari tashkil etilishi zarur. Bu bilan ularning reyting indikatorlarini to'g'ri shakllantirish va kuzatishdagi salohiyati oshadi. Ayniqsa, xalqaro akkreditatsiya, universitet brendingi va ilmiy diplomatiya bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

✓ **Davlat siyosati va normativ asoslarning uyg'unligi.** Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglarda ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi yagona milliy yo'l xaritasi va normativ asoslar ishlab chiqilishi lozim. Bu — vazirliklar, idoralar va OTMlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan strategik

yondashuvni ta'minlaydi. Xususan, xalqaro reyting mezonlariga mos OTM faoliyatini baholash indikatorlari milliy indikatorlar tizimiga kiritilishi maqsadga muvofiq.

Yakuniy xulosa

Umuman olganda, xalqaro reytinglarda muvaffaqiyatli ishtirok — bu alohida OTMlar tashabbusi emas, balki butun oliy ta'lim tizimi darajasida strategik va institutsional yondashuvni talab qiluvchi uzluksiz jarayondir. Strategik rejalashtirish, indikatorlarga asoslangan boshqaruv, raqamli yechimlar, grant siyosati va inson resurslarini rivojlantirish orqali O'zbekiston OTMlari xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashi va global akademik maydonda o'z pozitsiyasini mustahkamlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Knight, J. (2004). Internationalization remodeled: Definition, approaches, and rationales. *Journal of Studies in International Education*, 8(1), 5–31.
- Marginson, S. (2019). Global university rankings and the mediatization of higher education. *Higher Education*, 77(3), 377–389.
- QS Intelligence Unit. (2023). QS World University Rankings Methodology. Retrieved from: <https://www.topuniversities.com/>
- Times Higher Education (THE). (2023). World University Rankings: Methodology. Retrieved from: <https://www.timeshighereducation.com/>
- de Wit, H., Gacel-Ávila, J., Jones, E., & Jooste, N. (2017). The global impact of higher education internationalization. *Comparative and International Education*, 9(1), 1–9.
- Altbach, P. G., & Knight, J. (2007). The internationalization of higher education: Motivations and realities. *Journal of Studies in International Education*, 11(3-4), 290–305.
- MoES of the Republic of Uzbekistan. (2022). "O'zbekiston oliy ta'limi 2030" strategiyasi. Toshkent: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.
- Yuldashev, A. A. (2023). Oliy ta'limda xalqaro reytinglarga chiqishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari. *Oliy ta'lim va innovatsiyalar ilmiy-amaliy jurnali*, 2(4), 77–84.
- Kamilov, B. T. (2022). Universitetlar reytingini oshirishda xalqaro hamkorlik indikatorlarining roli. *Innovatsion Ta'lim, Ilmiy-tadqiqot va Rivojlanish*, 3(1), 102–109.
- Kim, T., & Lee, J. (2021). Strategic internationalization in Korean universities: From policy to practice. *Asia Pacific Education Review*, 22(2), 215–228.
- European University Association (EUA). (2020). Internationalisation in European higher education: European practices and global context. Brussels.